

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KEÑESINIŇ  
BIYLIGI**

2023 - yil 20 - oktabr

237-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi "Rossiya Federatsiyasiga bo'lajak oliy va yuqori darajadagi tashriflarga puxta tayyorgarlik ko'rish va uning doirasida o'tkaziladigan qo'shma tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 10-son (*№04-01-115, 29.09.23-y.*) bayoniga muvofiq, 2023-yil 1-7-oktabr kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari **A.Oteuliyev**, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining birinchi o'rinbosari **D.Joldasov** va Nukus tumani hokimining o'rinbosari - investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i **B.Sayipovlarning** Rossiy Federatsiyasi Qozon shahriga xizmat safari bilan bog'liq sarflangan xarajatlarni qoplash maqsadida:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (R.Sultanov) O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 73-moddasiga binoan budget tashkilotlari bo'lgan vakillarning tashrif xarajatlari uchun zarur bo'lgan **53 579 922,00** (*ellik uch million besh yuz yetmish to'qqiz ming to'qqiz yuz yigirma ikki*) so'm pul mablag'ini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1-ilovaga muvofiq tegishli tashkilotlarga ajratish choralarini ko'rsin.

2. Nukus tumani hokimligi (Z.Zaitov) tuman hokimining o'rinbosari - investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i B.Saypovning xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarini tuman mahalliy budget mablag'lari hisobidan qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratish choralarini ko'rsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar boshqarmasi (A.Ismailov) va Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (D.Joldasov) ajratilgan mablag'larni qonunchilikda o'rnatilgan tartibda yo'naltirilishini ta'minlasin.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Utambetov)dan ajratilgan mablag'larning maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish so'ralsin.

5. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari A.Oteuliyev zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F.Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 20-oktabrdagi  
237-13-0-F/23-son farmoyishiga  
1-ilova

### Xizmat safar mablag'larining tashkilotlar kesimida taqsimlanishi

<b>T/r</b>	<b>Tashkilot nomi</b>	<b>Ajratilgan mablag'</b>
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi	21 459 846,00 so'm
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi	32 120 076,00 so'm
<b>Jami:</b>		<b>53 579 922,00 so'm</b>